



BOZOR IQTISODIYOTI NORMALARI TIZIMI.

Ziyodova Rayhona

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti, IK-423 guruh talabasi.

Abstrakt: *Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti normalari, murakkab foyda ko'rish normasi, ratsional maqsadli fe'l-atvor tushunchalari to'liq yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Murakkab foyda ko'rish normasi, ratsional maqsadli fe'l-atvor, individuallashtirilmagan ishonch, xayriahohlik, ochiqlik.*

Bozor iqtisodiyoti normalari – bozorda bitimlarni amalga oshirish va unda muvozanatga erishish imkonini beruvchi xatti-harakatlarning o'zaro shartlangan normalari yig'indisini tashkil etadi. Bozordagi barqaror muvozanat bozor normalaridan foydalanishning natijasi hisoblanadi. Bozor normalari tizimi asosida yotuvchi birinchi norma – **murakkab foyda ko'rish** normasi bo'lib, u nafaqat individni foydalilikni oshirishga yo'naltirish, balki undan olinadigan foyda bilan o'zining samarali faoliyati o'rtasidagi aloqani anglab yetishini nazarda tutadi. Ya'ni foyda (manfaat) ko'rish individ tomonidan o'z foydaliligining samarali faoliyat asosida oshirilishidir.

Murakkab foyda ko'rish normasi individning ehtiyojlar darajasi va samarali faoliyati o'rtasidagi nomuvofiqlikni istisno etadi. Ba'zan bunday nomuvofiqlik yuqori ishlab chiqarish salohiyati va yuqori mehnat samaradorligiga ega bo'lmagan mamlakat aholisi o'rtasida yuqori iste'mol standartlarining tarqalishida yuzaga keladigan “nomuvofiq kutishlar inqiloblari” asnosida yotadi. Ushbu vaziyatda asosan ommaviy axborot vositalari orqali yuz beradigan yangi iste'mol standartini qabul qilish, jamiyatda hukmronlik qiluvchi samarali faoliyat modeliga taalluqli bo'lmaydi.

Bundan tashqari, qulay sharoitlar mavjud bo'lganida oddiy utilitarizm foydalilikni oshirishni, rentani izlashga aylantirishni nazarda tutadi. Mukammal raqobat vaziyatidan har qanday chetga chiqish, almashish (tariflar, kvotalar) uchun cheklovlar o'rnatilishi oddiy utilitarizm sa'y-harakatlarini rentani izlashga yoki, boshqacha aytganda, foydani samarasiz yo'naltirilishga aylantiradi. Individning rentani ko'paytirishga intilishini normativ cheklash sifatida murakkab manfaat ko'rish, ya'ni individ tomonidan boshqalar ziyoniga emas, balki faqat o'z faoliyati hisobidan yutuqqa erishish mumkinligining tan olinishi muqobil variant hisoblanadi.

Agar foyda ko'rish normasi individning maqsadli vazifasini belgilasa, ratsional maqsadli fe'l-atvor (xatti-harakat) normasi foydalilikni muayyan vazifalarning hal etilishi bilan bog'langan holda oshirishni muayyanlashtiradi. Ma'lumki, ratsional maqsadli fe'l-atvor individning ratsional va o'ylangan maqsadiga erishish uchun tashqi olam narsalari va insonlarning ma'lum fe'l atvoridan foydalanishni nazarda tutadi. Axborotning to'liqsizligi va uni qayta ishlash bo'yicha malakali qobiliyatlarning cheklanganligi sharoitida ratsional maqsadli fe'l-atvor, nayrang qilishga aylanadi: agar individ katta hajmdagi axborotga ega





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bo'lsa, u o'zining hamkori bilan nayrang qiladi. Indivud shu usul bilan atrofida gilarini o'z maqsadiga- foydalilikni oshirishga erishish vositasiga aylantirishga urinadi.

Ayrim agentliklarning foydalanilgan avtomobillar bozori va "ma'naviy xatar" bilan bog'liq sug'urta bozorida boshqalarni ziyonga uchratishi axborot assimetriyasidan foydalanishga klassik misol bo'ladi. Bunday ayyorlik, yaqqol yoki nozik shaklda aldash bilanshaxsiy manfaat ko'zlanadigan xatti-harakatga opportunism nomi berilgan. Ratsional maqsadli fe'l-atvorni opportunizmga aylantirishga qarshi kafolatlar barcha ishtirokchilar faoliyatining quyidagi yo tarkibiy yoki rasmiy-huquqiy jihatlari bilan tavsiflanadi:

- mukammal malakali qobilyat va almashuvda to'liq axborotga ega bo'lish;
- shartnoma tuzishda maxsus tamoyillardan foydalanish.

Ikkinchi jihat optimal shartnoma nazariyasini maxsus o'rganish obyektini hisoblanadi, shuning uchun bu yerda bozorning asosiy qonuniga ikkinchi unsure sifatida to'liq ratsionallik mezonlariga javob beruvchi ratsional maqsadli fe'l-atvorni ta'kidlash lozim.

Maqsadli ratsional fe'l-atvor shakllanishi asoslaridan biri atrof-muhitdagi narsalariniva kishilarning fe'l-atvorini kutilayotgan voqelikka nisbatan mos ravishda ayta olishdir. Indivud tomonidan qabul qilinadigan qarorlar xatarining hamkor faoliyati asosida aniqlangan vaziyatlarikutilayotgan voqelikka shartnoma ishtirokchisi harakatlariningmos bo'lishi uchun o'ta ahamiyatlidir. O'zaro bog'liqliklar sharoitida indivudlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi norma sifatidagi ishonch bo'lgan taqdirda maqsadli ratsional harakatga erishiladi.

Indivudga o'z harakatini boshlashiga qadar atrofida gilar harakatlar aniq bo'lib, indivud tanloviga ayrim atrofida gilar harakatlar bo'yicha kutilishlarning ta'sir qilishi ishonch deyiladi. Bozordagi bitim bilan individuallashmagan ishonch o'rtasidagi bog'liqlik oldindan to'lovlarning amal qilishida namoyon bo'ladi. Bu eng oddiy bozor bitimi hisoblanadi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda individuallashmagan ishonch bo'yicha o'tkazilgan so'rovlarga javoblar (Daniya-94%, Germaniya-90%, Fransiya-84%)da yuqori natijalarga erishilgan.

Bozor iqtisodiyotining yana bir normasi xayrihohlik bo'lib, bunda indivud o'zini hamkor o'rniga qo'yib ko'radi va uning barcha kechinmalari, qiziqishlari va mo'ljallarini bozor subyektini sifatida o'zidan o'tkazishga harakat qiladi. Ayrim shaxslar doirasi bilan cheklanmagan xayrihohlik indivudning o'z harakatlarida erkinlikka chiqqani bilan bog'liq. Insonning faoliyati qancha erkin bo'lsa, u atrofida gilar harakatini shuncha yaxshi tushunadi va uni oldindan ayta oladi. Bu erkinlik normasining ratsional asoslangan maqsadga erishishda to'siq emas, balkimuvaffaqiyat shartiga aylanishini ta'minlaydi. So'nggi norma ochiqlik (erkinlik) bo'lib, bunda qonunni hurmat qilish va o'z ixtiyoriga ko'ra, unga bo'ysinish tushuniladi. Bu norma ayni chog'da, mulkiy huquqlarning samarali himoya qilinishiga ham yo'l ochadi. Yuqorida bayon etilganlardan shu narsa kelib chiqadiki, bozor iqtisodiyoti normalari tizimida ham ayrim nuqsonlar mavjud bo'lgani holda, ularning o'zaro bog'liq tarzda amal qilishi tizimning muntazam takomillashuviga xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Xulosa qiladigan bo'lsam: bozor iqtisodiyoti normalar tizimi- bu bozorning samarali va adolatli ishlashini ta'minlash uchun yaratilgan qoidalar va me'yorlar majmuidir. Shu o'rinda bozor iqtisodiyoti normalar tizimining ayrim komponentlarini ta'kidlab o'tish lozim, bular; **Huquqiy me'yorlar:** davlat tomonidan belgilangan qonunlar va qoidalar, masalan; mulk huquqi, raqobatni himoya qilishga oid normalar. **Iqtisodiy me'yorlar:** bozorni talab va taklif asosida ishlashini ta'minlovchi iqtisodiy prinsiplar, masalan; narxlar va resurslar taqsimoti. **Ijtimoiy me'yorlar:** jamiyatda qabul qilingan axloqiy va madaniy qadriyatlar, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. **Raqobat muhiti:** bozor iqtisodiyoti samaradorligini ta'minlash uchun raqobatni rag'batlantiradigan muhit yaratish, monopoliyalarning oldini olish. **Nazorat va monitoring:** davlat va boshqa tashkilotlar tomonidan bozor faoliyatini kuzatish va nazorat qilish, bu orqali noqonuniy faoliyatlar oldini olish. Bozor iqtisodiyoti normalar tizimi iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.B.Berkinov. Institutsional iqtisodiyot. Darslik. 4-nashr, qayta ishlangan. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaa uyi”, 2021 -324b.
2. Miriam Kenne, Michelle Gale De Oliveria. Greening the Global Economy: Reform and Transformation. The Green Economics Institute, 2013. -250p.
3. 3.<https://www.un.org>
4. 4.<https://sustainabledevelopment.un.org>
5. 5.Renewables 2018 Global Status Report. www.fs-unep-centre.org
6. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi; Darslik – “Lesson Press” nashriyoti, 2021. 768 bet. Toshkent-2021.
7. R.Ziyodova Content, Function and types of price “Journal of science-innovative research in Uzbekistan”2024.March